



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohunova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorlikning моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta’minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta’siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejapov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Bernykov V., Bilousko T., Bilousko R., Pitel N., Starovoyit V. Green Technologies and Their Contribution to a Sustainable Global Economy in 2020–2025: A Literature Review // *Futurity Economics & Law*. – 2025. – Vol. 5(1). – P. 161–178.
2. Zhu J. J., Zhang R., Kanhalikham K., Liu Z., Shen X. Green economy studies amongst the global climate change challenge between 2016 and 2022: a bibliometric review // *Frontiers in Ecology and Evolution*. – 2023. – Vol. 11.
3. European Commission. *The European Green Deal*. – Brussels: EC, 2019.
4. UNEP. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011.
5. OECD. *Green Growth Indicators*. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Asian Development Bank. *Central Asia Regional Economic Cooperation: Green Energy Projects*. – Manila: ADB, 2022.
7. World Bank. *Green Economy and Sustainable Development*. – Washington: World Bank, 2020.

UDK: 338.4

**MAHALLIY KORXONALARDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI
BOSHQARISH AMALIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ
ПРОДУКЦИИ НА МЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**SPECIFIC FEATURES OF PRODUCT COMPETITIVENESS MANAGEMENT
PRACTICES IN LOCAL ENTERPRISES**

Ikromov Axmadjon Shavkat o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrasida katta o‘qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi asosiy omillar, jumladan mahsulot sifati, narx siyosati, innovatsion faoliyat, marketing strategiyalari hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, mahalliy bozor sharoitida korxonalarining ichki resurslardan samarali foydalanishi va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari mahalliy korxonalarining raqobat ustunliklarini mustahkamlash va bozor pozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, mahalliy korxonalar, mahsulot sifati, boshqaruv mexanizmi, marketing strategiyasi, innovatsiyalar.

В статье анализируются особенности практики управления конкурентоспособностью продукции на местных предприятиях. В ходе исследования рассматриваются ключевые факторы формирования конкурентоспособности, включая качество продукции, ценовую политику, инновационную деятельность, маркетинговые стратегии и механизмы государственной поддержки. Особое внимание уделяется вопросам эффективного использования внутренних ресурсов предприятий и оптимизации управленческих решений в условиях местного рынка. Полученные результаты направлены на разработку практических рекомендаций по укреплению конкурентных преимуществ и повышению рыночных позиций местных предприятий.


Ключевые слова: конкурентоспособность, местные предприятия, качество продукции, механизм управления, маркетинговая стратегия, инновации.

This article examines the specific features of managing product competitiveness in local enterprises. The study analyzes the key factors influencing competitiveness, including product quality, pricing policy, innovation activities, marketing strategies, and government support mechanisms. Special attention is paid to the efficient use of internal resources and the optimization of managerial decisions under local market conditions. The findings of the research contribute to the development of practical recommendations aimed at strengthening competitive advantages and improving the market position of local enterprises.

Keywords: competitiveness, local enterprises, product quality, management mechanism, marketing strategy, innovation.

Har qanday xo‘jalik subyektlari faoliyatida boshqaruv amaliyoti bir-biridan ma’lum bir jihatlari bilan o‘zaro farqlanib, bunda tarmoq, bozor, mikro va makro darajasida ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisobiga har bir korxonaning o‘ziga xos bo‘lgan xususiy boshqaruv amaliyotiga ega bo‘lishi iqtisodiy adabiyotda o‘tkazilgan ko‘p sonli ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, mahalliy korxonalar faoliyatida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining samaradorlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish asosida ular uchun xos bo‘lgan boshqaruv xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu esa, ular uchun umumiy bo‘lgan mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatdan sxematik tuzilishini ishlab chiqish imkonini beradi[1].


Demak, o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida mahalliy oziq-ovqat korxonalari faoliyatida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotini ishlab chiqarishni tashkil etish, resurslar samaradorligini ta’minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotning bozor aylanmasi hajmini oshirish yo‘nalishlari (1-rasm) bo‘yicha xususiyatlarini umumlashtirgan holda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning sxematik tuzilishini ishlab chiqishga erishildi. Bu turdagi guruhlashni amalga oshirish orqali korxonalar faoliyatida mahsulot ishlab chiqarishning dastlabki bosqichdan boshlab, to uni iste’molchiga yetib borgunga qadar bo‘lgan bosqichlardagi raqobatbardoshlikni boshqarish amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni alohida ajratib ko‘rsatishga erishilib, olingan xulosalarning aniqlik darajasini ortishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Mahalliy oziq-ovqat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish yo‘nalishlari.

Mahalliy oziq-ovqat korxonalari faoliyatida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning birinchi yo‘nalishi sifatida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar ajratib olindi. Mazkur yo‘nalish korxonada mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining birinchi bosqichi sifatida baholanib, bunda ma’lum bir turdagi resursni qayta ishlash asosida ma’lum bir darajadagi qo‘shilgan qiymat yaratilishi, shu bilan birgalikda, mahsulot ishlab chiqarish bilan

bog‘liq jarayonlarda uning raqobatbardoshligini boshqarish amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni ajratib olishga xizmat qiladi[2].



2-rasm. Oziq-ovqat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish mexanizmi.

Oziq-ovqat korxonasida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bosqichida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyoti korxonadan ishlab chiqarishi rejalashtirilgan mahsulot turi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda korxonadan tanlangan oziq-ovqat mahsulotining xom-ashyosi hisoblangan qishloq xo‘jaligi mahsulotining turi korxonada ishlab chiqarishni tashkil

etish imkoniyatlarini belgilab beradi[3]. Ya’ni resurs sifatida tanlangan qishloq xo‘jaligi mahsuloti asosida ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan mahsulot turlari nazarda tutiladi. Masalan, chorvachilik mahsulotlari asosida go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish yoki parrandachilik mahsulotlari asosida parranda go‘shiti yoki tuxum mahsulotlari ishlab chiqarilishi mumkin bo‘ladi (2-rasm). Bu esa, o‘z navbatida, korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda ular ishlab chiqarayotgan mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish bilan bog‘liq xususiyatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish asosida ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida iste’molga tayyor bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlariga ustuvorlik qaratilishi natijasida aksariyat turdagi chorvachilik, parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash asosida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sanoat korxonalarini bazasida emas, balki ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari bazalarida ishlab chiqarish amaliyotiga o‘tilgan hisoblanadi[4]. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish hisobiga arzon narxdagi mahsulot taklifi bilan bozorga chiqish imkonini beradi.


Jumladan, so‘nggi yillarda mamlakatimiz amaliyotida ham o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlovchi fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish bilan birgalikda qishloq xo‘jaligida agroklasterlar faoliyatiga oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining integratsiya qilinishi oziq-ovqat korxonalarini tomonidan ma’lum bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish amaliyotida xarajatlarni optimallashtirishga ustuvorlik qaratish zaruriyatini vujudga keltiradi. Mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligi holati qiyosiy taqqoslangan mahalliy oziq-ovqat korxonalarida ham shunga o‘xshash xususiyat mavjud ekanligi aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarilayotgan mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Tahlillarga ko‘ra, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish jarayonlari mahalliy oziq-ovqat korxonalarini faoliyatida ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulot turini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom-ashyoni topishdan boshlab, to uni iste’molga tayyor hisoblangan mahsulot turiga yetkazishgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu asosida ustuvorlik ishlab chiqarilayotgan mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishda belgilangan narx va sifat darajasini ta’minlashga qaratiladi[5]. Mahalliy oziq-ovqat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish besh bosqichda amalga oshirilib (3-rasm), ularning har birida tegishli tartibda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi xususiyatlar mavjud ekanligi aniqlandi:

birinchi bosqich – mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom-ashyo ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan ta’minotchilar tomonidan bozordagi mavjud taklifni o‘rganish bosqichi hisoblanadi. Bunda korxonalar tomonidan ta’minotchilar taklifini o‘rganishda taklif etilayotgan xom-ashyoning narxi va sifat ko‘rsatkichlari, jumladan uni yetkazib berish shartlari chuqur tahlil qilinib, nisbatan arzonroq narxda taklif etilayotgan xom-ashyo yetkazib beruvchilar aniqlab olinadi. Ushbu bosqichda mahsulot qiymatini shakllantirish, ya’ni uning narxiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi xom-ashyoni tanlab olish uchun korxonaga mos keladigan takliflar ajratib olinadi. Bu esa mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning narxi va sifati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlariga aloqador bo‘ladi;

ikkinchi bosqichda korxonalar uchun mos keladigan takliflar o‘rtasida korxonalar uchun nisbatan arzon va qulayroq shart-sharoitlarda tegishli sifatga ega bo‘lgan xom-ashyo taklifini amalga oshirgan ta’minotchi bilan xom-ashyoni sotib olish shartnomasi tuziladi va xom-ashyo korxonaga yetkazib beraladi. Ushbu bosqich xom-ashyoni sotib olish bo‘yicha korxonalar uchun u tomonidan ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti turiga mos keladigan xom-ashyo taklifining narx, sifat va yetkazib berish bo‘yicha eng optimal bo‘lgan variantini qabul qilishini anglatadi, ya’ni xom-ashyo ta’minoti bo‘yicha qaror qabul qilish. Qabul qilingan qaror korxonaning mahsulot

raqobatbardoshligini boshqarish amaliyoti samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatganligi sababli mazkur bosqichni alohida ajratib ko’rsatishni lozim topdik;



3-rasm. Mahalliy oziq-ovqat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilish mexanizmi.

uchinchi bosqichda sotib olingan xom-ashyo qayta ishlashda foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari, texnikalari va ushbu jarayonda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi korxonalar ishchilarining tarkibiy tuzilishi bilan bog‘liq xususiyatlar ajratib ko’rsatiladi. Bunda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichini ta’minlashga ustuvorlik qaratiladi. Ya’ni sotib olingan xom-ashyoni qayta ishlashda foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari, texnikalari soni, ularning rusumi (modeli), mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan ishchilarning kasbiy kompetentligi, jumladan, ularning mehnat stajlari davri ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati shakllanishiga o‘z ta’sirini ko’rsatadi. Shu bilan birgalikda, qayta ishlash jarayonida foydalanilayotgan resurslarni to‘liq qayta ishlash orqali korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, ayrim holatlarda ishlab chiqarish vosita va texnikalarining eski rusumdaligi, ularning texnik holati talab darajasida bo‘lmashligi yoki mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etayotgan xodimlarning kasbiy kompetentligi hamda tegishli mehnat stajiga ega bo‘lmashligi hisobiga ishlab chiqarish jarayonida turli xatoliklar, uzilishlarni vujudga keltirib, ma’lum bir hajmdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining buzilishiga (brak holatga kelishiga) olib keladi. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga olib keladi. Yoki aksincha holat bo‘lishi ham mumkin bo‘ladi;

to‘rtinchi bosqich mahsulot ishlab chiqarishni yakunlash bosqichi bo‘lib, bunda jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar qadoqlash uchun ajratib olinishi kerak bo‘ladi. Ushbu bosqichda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyoti uchun xos bo‘lgan sifat nazorati amalga oshiriladi. Ya’ni jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar orasidan ma’lum bir kamchilikka yoki talabga javob bermaydigan mahsulotlar ajratib olinib, qadoqlash bosqichiga yuborilmaydi;

beshinchi bosqich – qadoqlash bosqichida sifat jihatdan o‘rnatilgan talabga javob beradigan mahsulotlar qadoqlanib, ularni sotish uchun tayyor holatga keltiriladi. Ushbu bosqichda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmi bilan amalda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmlari o‘rtasidagi nisbatni aniqlashga erishiladi. Bu esa korxonada mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining samaradorligi holatini aniqlashga yordam beradi. Ya’ni qadoqlash bosqichiga yetib kelgunga qadar sifati buzilgan yoki iste‘molga yaroqsiz holatga kelgan (brak) mahsulotlar hajmi qanchalik ko‘p bo‘lsa, korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish amaliyotini takomillashtirish zaruriyati mavjud ekanligini anglatadi yoki aksincha.

Umuman olganda, oziq-ovqat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishning ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichida narx va sifat o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta’minlashga ustuvorlik qaratilishi aniqlandi. Ushbu bosqich korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Shuningdek, mahalliy oziq-ovqat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini boshqarishda resurslar samaradorligini oshirish yo‘nalishi korxonada faoliyatini investitsiyalash hisobiga erishiladigan ijobiy tendensiyalarda o‘z aksini topadi. Bunda korxonaning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish hisobiga xom-ashyoni to‘liq qayta ishlash imkonini beruvchi texnikalar bilan qurollantirish orqali ishlab chiqarishni avtomatizatsiyalash, yuqori malakali kadrlarni jalb qilish hisobiga mehnat unumdorligini oshirish mumkin bo‘ladi. Bu turdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish investitsion faollik va uning samaradorligini ta’minlash hisobiga korxonada mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga erishishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alghamdi H., Bach Ch. Quality as Competitive Advantage. *International Journal of Management & Information Technology*. Vol. 8, No. 1, 2013. – pp.1265-1272.
2. Aspers P. Alfred Marshall and the Concept of Class. *American Journal of Economics and Sociology*. Vol. 69 (1), 2010. – pp. 151-165.
3. Atkinson J.W. Motivational Determinants of Risk Taking Behavior, *Psychological Review*, vol. 64, no. 6, 1957. – pp. 359-372.
4. Baptista De Andrade J.A., Formigioni A., Da Silva S.A., Flavio Stettiner C. Analysis of the Theory of Acquired Needs from McClellan as a Means of Work Satisfaction. *Timor-Leste Journal of Business and Management*, Vol. 3, Issue 2, 2021. – pp. 54-59.
5. Barker T. Köhler J. Environmental Policy and Competitiveness. *Environmental Policy Research Briefs*, Vol. 6, 1998. – pp. 1–12.
6. Bondarenko A.I. Method of calculating the index of integral competitiveness for enterprises of the meat industry. *Agrarian Bulletin of the Urals*. № 8 (62), 2009 – pp. 43–45.
7. Brown D.J., Calsamiglia C. Alfred Marshall’s Cardinal Theory of Value: The Strong Law of Demand. *Economic Theory Bulletin*, Vol. 2, 2014. – pp. 65-76.
8. Charlebois S., Hill A., Vezeau J. Hunsberger L. Johnston M. Music J. Assessing a Nation’s Competitiveness in Global Food Innovation: Creating a Global Food Innovation Index. *World*, Vol. 3, 2022. – pp. 27-66. <https://doi.org/10.3390/world3010002>.
9. Cook M. and Bredahl M. Agribusiness competitiveness in the 1990s: Discussion. *American Journal of Agricultural Economics*, Vol. 73, No. 5, 1991. – pp. 1472-1473.